XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 17 - may VI-58-48-6-80-K/23 Kosonsoy tuman hokimligi

Kosonsoy shahar markaziga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Kosonsoy tuman markaziga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yil kungi PQ-190-son qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 10 aprel kungi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida” Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori, Kosonsoy tuman IIBning 2023 yil 10 fevral Kosonsoy tuman yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi 37/1-733-sonli xati ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kosonsoy tuman IIBning 2023 yil 10 fevraldagi Kosonsoy tuman markaziga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida”gi 37/1-733-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kosonsoy tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Shukurov), Kosonsoy tuman IIB YHXG (D.Qodirov)larga: 4R-120 Iskavot-Kosonsoy-To‘raqo‘g‘on Jamashuy-Soybo‘yi avtomobil yo‘lini 14+000 kmda 14+250 kmgacha 3.27 hamda 4R-114 Namangan-Kosonsoy-Qirg‘isiton Respublikasi avtomobil yo‘lini 32+100 kmdan 32+500 kmgacha 3.27, 3.28 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilishi vazifasi yuklatilsin.

3. Kosonsoy tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi (A.Inomiddinov)ga Kosonsoy tumanidagi maktablar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga tezlik 30, “Diqqat maktab” yo‘l belgisini o‘rnatish va sun’iy do‘ngliklar bilan ta’minlash

vazifasi yuklatinsin.

4. Kosonsoy tuman hokimligini moliya bo‘limi (Y.Kamolov)ga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.04.2022 yil kungi PQ-190-son Qaroriga asosan tuman markaziga 2 dona fotoradar moslamasini o‘rnatish choralari yuklatilsin.

5. Kosonsoy tuman hokimligi matbuot kotibi (R.Temirov), mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilinganligi munosabati bilan, Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashining 2023 yil 25 fevraldagi VI-57-23-6-80-K/23-sonli qarori bekor qilinganligi to‘g‘ri deb topilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Toshpulatov), Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud – huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (I.Jo‘rayev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.Kadirov**